



## KITOB MUTOLASI MANAVIYATIMIZ YUKSALISHI ASOSI

**Qo'rg'onboyev  
Shukrillo  
Maxmudillo o'g'li**

**Andijon qishloq xojaligi va agrotexnologiyalar instituti  
"Gumanitar fanlar" kafedrası assistenti  
@shukrillohqorgonboyevgmail.com**

**Anatatsiya:** Ushbu maqola kitob mutolasi va uning inson vanaviyatiga ijobiy tasiri haqida. Kitob oqishning foydalari juda ko'p, uni har doim mutola qilgan kishini hech qachon manaviyatini qashshoqlikda qo'ymaydi. Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o'qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o'qishni boshlaganlaridan so'ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

**Kalit so'zlar:** kitob, internet, yozuv, qog'oz, mutola,

Bugungi kunda kitob mutolasi yoshlarimiz orasida afsuski juda kamyob bo'lib bormoqda zero kitobning foydalari internetdan foydalanishdan ko'ra foydaliroq ekanligini bilamiz ammno bu foydalar aynan nimada ekanligini hammamiz ham bilavermaymiz. Internetning foydali tomonlari ko'pdir. Masalan biz internetdan har xil o'zimizga kerakli ma'lumotlarni topishimiz mumkin. Uzoqdagi yaqinimiz bilan suhbatlashamiz undan hol axvol so'raymiz. Internetdan har xil musiqalarni, videolarni, o'yinlarni yuklab olsak bo'ladi. Bu albatta internetning foydali tomonlari hisoblanadi.

Internetning salbiy tomonlari ham ko'p. Zararli tomoni shundaki biz internetdan ko'p foydalansak internet bizni o'ziga qamrab, qaram qilib qo'yadi va unga o'rganib qolamiz. Internet bizni hayotimizni, manaviyatimizni xavf ostida qoldirishi mumkin. Qancha yoshlar kecha-yu kunduz internetdan boshini kótarmay unga o'rganib qolgan. Ko'p telefonga, internetga qarayversak, kelajakda birorbir kasb egasi bo'lolmaymiz. Ko'chada tozalash xodimi yoki biror joyga farroshmi, usta va shunga o'xshash kasb egalari bo'la olamiz xolos. Shunchaki vaqtimizni va sog'likimizni ketgani qoladi holos. Bizga bu foyda keltimaydi, aksincha ham moddiy, ham manaviy zarar keltiradi.

[1]

Kitob qanday paydo bo'lgan? Daslabki kitoblar qanday paydo bo'lganligi har har qanday kitobsevar kitobxon uchun qiziqarli mavzu bo'lsa kerak. Qandaydir ilmga ega bo'lgan kitoblar vaqt o'tishi bilan, ilm fan rivojlangan sari o'zgaradi. Endilikda ular elektron shaklda tinglanishi yoki o'qilishi mumkin, ammo ular hali ham bizga yaqin. [2]

Kitob gadimgi buyuk kashfiyotlar- yozuv, qog'oz, siyoh bilan chambarchas bog'liq. Ushbu so'zning zamonaviy ma'nosida kitob alohida-alohida sahifalar yoki varaqlardan tashkil topgan, alohida turdagi mahsulotdir. Bu ma'lumotlarga matn terish yoki qo'lyozma usuli bilan chop etiladi. Eng qadimgi kitoblar hayvon terilariga

yozilgan ammo ularni saqlashdagi muammolar juda ham ko‘p bo‘lgan. Kitob sozinong ma‘nosi Proto-slavyan tilida “kuniga” deb nomiangan. Ehtimol, bu so‘z qadimiy turkiy tillardan olingan bo‘lishi mumkun. Yana bir terminologik jihattan “aylantirish” degan ma‘noni anglatadi. Demak “takrorlash bilimlarning onasi” degan mashxur ibora yo‘qoridagi mazmunni mantiyqiy bog‘laydi. [3]

Biz bilgan kitoblar o‘rta asrlarda paydo bo‘lgan. Naycha shaklida o‘ralgan papirus ularning o‘rnini bosgan. Papirus varaqlari bir-biriga yopishtirilib o‘ralgan. Rim aholisi ularni “volyumen” deb atashgan. Inglizcha “volume”, ya’ni “jild” so‘zi shundan kelib chiqqan. [4]

XV asrning o‘rtalariga kelib papirus o‘rnini pergament (hayvon terisi) egalladi. U qo‘y va echki terisidan, eng nozik pergament esa buzoq terisidan tayyorlangan. Uning bir tomoniga matn yozilgan, so‘ngra bir xil o‘lchamdagi varaqlar kesilib, charm kamarlar bilan mahkamlangan. Agar biz buni kitob deya olsak, birinchi kitoblar shu shaklda bo‘lgan. [5]

Ammo zamonaviyga o‘xshash kitoblar birinchi marta o‘rta asrlarda yaratilgan. Pergamentning to‘rtta bo‘lagi o‘rtasidan teng ikkiga buklangan, shunda har birida ikkitadan varaq hosil bo‘lgan. Keyin ular ustma-ust joylashtirilgan, natijada jami 8 varaq yoki bitta qism kelib chiqqan. [6]

Tayyor qismlar xattotga yuborilgan. U matn yozgan. Xattot varaqlarni ajratib, har bir sahifa ustida alohida ishlagan. Pergament ikki tomondan ham yozish uchun yetarli darajada qalin bo‘lgan. [7]

Keyin tugallangan qismlar muqovachiga jo‘natilgan. U har bir qismni buklangan chiziq bo‘ylab chilvirlar (ingichka arqon) bilan tikib chiqqan. So‘ngra yog‘och muqovalar tayyorlangan. Qismlarni birlashtirish uchun chilvir uchlari yog‘ochdagi teshiklardan o‘tkazilgan, keyin qismlarning birlashgan joylarini yopish uchun yog‘och muqovaga katta teri parchasi yopishtirilgan. Tayyor kitoblar bezatilgan va ehtiyotkorlik bilan saqlangan. [8]

O‘rta asrlardagi birinchi kitoblarning ko‘pchiligi Injil va boshqa diniy adabiyotlar bo‘lgan. Keyinchalik huquqiy, tibbiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar paydo bo‘lishni boshlagan. Undan keyin esa tarixiy yilnomalar va romanlar nashr etilgan. O‘rta asrlarda kitoblarning aksariyati lotin tilida yozilgan. [9]

So‘nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan kitob mutolaasi muhimligi, yoshlar, rahbarlar orasida bu fazilatni targ‘ib qilish haqida ko‘p bora ta’kidlanmoqda. Amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy izchil islohotlar jarayonida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. [10]

Aslida ham, kitob va kitobxonlik insonlar ong-tafakkurini teranlashtirib, qalbiga eng go‘zal ezgu niyatlarni joylaydigan, ularni yaxshiliklar olamiga yetaklaydigan ma’naviyat sarchashmasidir. Shuning uchun har doim kitob o‘qishga ehtiyojimiz bor. [11]

Ba’zan odam moddiy manfaatlar, zamon yangiliklari, internet tizimi ichra kuni va tuni qanday o‘tganini ham bilmay qoladi. Bunday yashash tarzidan zerikadi. Nimanidir sog‘inganday, izlab topa olmayotganday bo‘laveradi. Yuragi siqilib, go‘yoki o‘ziga sig‘maydi. Ko‘ngil bir og‘iz shirin so‘z, bir taskin, malham istaydi. [12]

Shunday paytda biz, albatta, kitob varaqlashga tushamiz. Ko'nglimizga yoqqan she'rmi, hikoyami – xoh u qatra bo'lsin yoki salmoqli qissa va romanmi – tuyqus o'qiy boshlaymiz, o'qiyveramiz. Nafaqat o'qiyamiz, balki asardagi voqealar rivojiga kirib ketamiz va o'sha yerda yashaymiz. [13]

Nihoyat ko'ngil orom olib, qalb taskin topganday bo'ladi. Shundagina adabiyotning kuchini, uning zaruratini chuqur his qilamiz. Zero, yaxshi kitob insonning ko'ngil ko'zgasini poklaydi, shirin xayollar surishga, eng asosiysi, odamlarni tushunishga, kechirishga, ezgulik sari intilib yashashga undaydi. [14]

Kitoblar qalbimizni ilitadi, ko'nglimizni yoritadi, baxtli va saodatli, nurli kunlarga boshlaydi. Dunyoni faqatgina a ilm bilan zabt etish mumkin ekanligi haqidagi asl haqiqat bugun hech kimga sir emas. Ilmni mustahkam egallashning yo'li esa bitta, ya'ni – kitob o'qish.[15]

Mamlakatimizda yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, aholining kitobxonlik ko'nikmasini yuksaltirish, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari internet tarmoqlariga joylashtirish va keng targ'ib qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, kelajak avlod uchun, bolalar adabiyotini rivojlantirish, o'quv adabiyotlari va darsliklarning saviyasini ko'tarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'naviy, huquqiy va moddiy asoslar yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T.: -O'zbekiston, 2009.
2. Д.Тожиалиев Нашриёт:”Kitob haqida kitob” «Akademnashr» Сана: 2021 йил  
Ҳажми: 240 бет;
3. Т.Salimov, F.Sultonov “Jahon tarixi”. 7-sinf T. 2009;
4. Ta'lim to'g'risidagi Qonun. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori T., 1997, 27-bet
5. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. – T.: Fan, 2006.
6. УС Абдуллаев, МА Каримова. [Основные направления традиционных межэтнических процессов в ферганской долине \(XIX–XX в. в.\)](#)// Социально-гуманитарный вестник Юга России, 3-7. [Straznikova-Inna-Vasilevna-Voprosy-razvitiya-obrazovaniya-Zapadnogo-regiona-Ukrainy-v-sovremennyh-issledovaniyah.pdf \(researchgate.net\)](#)
7. УС Абдуллаев, МА Каримова.[Обряды, связанные с посещением мазаров у женщин Ферганы: традиция и современность](#)// Международный научно-исследовательский журнал, 72-74. <https://cyberleninka.ru/article/n/obryady-svyazannye-s-posescheniem-mazarov-u-zhenschin-fergany-traditsiya-i-sovremennost>
8. КМ Abduqayumovna. [INTERACTION OF OBJECT, SUBJECT AND SYNERGETIC CATEGORIES IN SCIENTIFIC WORK](#)// Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 3, 25-29. <https://sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/9>